

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHI YOSHLARGA TARBIYA
FANINI O'QITISH DOLZARBLIGI.**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrasи o'qituvchisi

Ochilov Abror

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

3-kurs talabasi

Murodillayev Shuxrat Sherali o'g'li

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiya fanining joriy qilinishi, uning ahamiyati, tarbiya fanining hozirgi kunda dolzarbligi ya'ni tarbiya fanining yoshlari ma'nnaviy kamolotidagi o'rni va roli va maktablarda tarbiya fanini o'qitishning zarurligi yoritilgan. Tarbiya fani o'quvchilarning ma'nnaviy va axloqiy rivojlanishiga, milliy qadriyatlarni anglashiga, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim ta'limgositasi sifatida ta'riflanadi. Maqolada globallashuv, zararli axborot oqimlari va zamonaviy xavflar sharoitida yosh avlodni tarbiyalashning ahamiyati tahlil qilingan. Shu bilan birga, ushbu fanning o'quvchilarga jamiyatdagi o'rnini anglash, sog'lom turmush tarzi va fuqarolik burchini bajarish borasida bergan ijobjiy ta'siri ko'rsatib o'tilgan. Maqola maktablarda tarbiya fanini o'qitishning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishdagi, shaxsiy va ijtimoiy kamolotga erishishdagi dolzarbligini asoslaydi.

Abstract. This article covers the introduction of educational science, its importance, the current relevance of educational science, that is, the role and role of Educational Science in the spiritual maturity of young people and the relevance of teaching educational science in schools. The discipline of education is defined as an important educational tool that serves the spiritual and moral development of students, their understanding of national values, the formation of social skills and their personal development. The article analyzes the importance of educating the

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

younger generation in the context of globalization, harmful information flows and modern risks. At the same time, the positive effects of this discipline on the students on understanding their place in society, fulfilling a healthy lifestyle and civic duty are shown. Article on the harmonization of national and universal values of teaching education in schools, personal and social maturation

Аннотация. В этой статье рассматривается введение науки об образовании, ее важность, актуальность науки об образовании в настоящее время, то есть роль науки об образовании в духовном созревании молодежи и актуальность преподавания науки об образовании в школах. Образовательная дисциплина определяется как важный образовательный инструмент, служащий духовно-нравственному развитию учащихся, пониманию ими национальных ценностей, формированию социальных навыков и их личностному развитию. В статье анализируется важность воспитания подрастающего поколения в условиях глобализации, вредных информационных потоков и современных рисков. В то же время показано положительное влияние этой дисциплины на студентов в плане понимания своего места в обществе, выполнения здорового образа жизни и гражданского долга. Статья о гармонизации национальных и общечеловеческих ценностей педагогического образования в школах, личностных.

Kalit so'zlar : tarbiya , ma'naviyat, yoshlar, tarbiya fani , ma 'naviy rivojlantirish, tarbiyaning dolzarbligi , axloqiy qadriyatlar , milliy qadriyatlar , globallashuv , yosh avlod tarbiyasi , barkamol shaxs , ijtimoiy ko 'nikmalar , sog 'lom turmush tarzi , ma 'naviy immunitet , oila va jamiyat , fuqarolik burchi , maktab tarbiyasi , ma 'naviy kamolot

Tarbiya fanini joriy qilinishi . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2020-2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o'quvchilarda "Milliy tiklanishdan -milliy yuksalish sari"

Ta'limning zamонавиј трансформатсијаси

g'oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan."Tarbiya" fanining o'quv dasturi va darsliklarida vatanparvarlik, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga alohida urg'u berilgan. Mavzularni o'qitishda bugun jahon miqyosida ommalashgan "Loyiha asosida o'qitish", "Qiziqishlar asosida ta'lim berish", «Artfest», "Namuna ko'rsatish", "Misollar orqali o'qitish", "Vaziyatlarni tahlil qilish" kabi ta'lim berishning ilg'or texnologiya va uslublari qo'llanilgan.

Tarbiya —shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'rildigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mayjud bo'la olmaydi, chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Tarbiya inson shaxsinishakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tarbiya fanining umumta'lim maktablarda o'qitish dolbzarligi. Umumtalim o'rta talim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi zamонавиј ta'lim tizimining muhim masalalaridan biridir. Chunki bu fan yoshlar tafakkuri,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ularning shaxsiyatini shakllantirish va tanqidiy fikrlashiga tasiri juda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu fan yosh o'quvchilarni nazariy va amaliy muhokama qilish, tahlil qilish, maslahat bera olish va o'z fikrlarini rivojlantirishga o'rgatadi. Shuningdek, zamonaviy davrda bu fan yoshlarni quydagi qobiliyatlarini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Birinchidan, tarbiya fanining darslarida o'quvchilarga o'z fikrlarini bajarish va izohlash imkoniyati beradi. Bu ularni muhokama qilish va o'z fikrlarini boshqalarga yetkazishda o'rgatadi.

Ikkinchidan, tarbiya darslarida yosh o'quvchilarga mualliflik qilib yozish va fikr bildirish o'rgatiladi. Bu ularni o'z fikrlarini tizib yozish, ma'lumotlarni tahlil qilish va tasavvur qilish orqali mustaqil o'zlashtirishda yordam beradi.

Uchinchidan, tarbiya darslarida yoshlar o'zgaruvchan fikrlar va muammolar bilan tanishadi. Ular muhim maqolalarni tahlil qilish va ularning pozitsiyalarini tushunish va ifodalashni o'rganish orqali yaratadigan fikrini rivojlantiradilar. Shuningdek, tarbiya fanida yosh o'quvchilar munozara va tanqidni o'rganish, biror masalalarni turli tomondan qarash va qanday qilib rivojlantirish kerakligini tushunishga imkoniyat yaratiladi.

Tarbiya fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish quyidagilarni tashkil qiladi:

Birinchidan, o'qituvchilar o'quvchilar bilan muhokama qilish va ulardan o'quv usullarining samarali ishlayotganini o'rganish orqali foydalanishlari tavsiya etiladi. O'quvchilarning qanday o'rganishganlarini bilish va ulardan ma'naviyatli foydalanishga intilish yordam beradi. Ikkinchidan, kompyuter texnologiyalari, internet va multimedia resurslaridan qoniqarli foydalanish, o'quvchilarni interaktiv ta'lim jarayonida qatnashish va ularni yangi ma'lumotlarga o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Uchinchidan, o'quvchilarning o'z o'zlarini o'rganish va o'qish usullarini boshqarishga imkon beruvchi mudhish-fan metodikasi ishlatish tavsiya etiladi. Bu, o'quvchilarni o'zlashtirish va o'rganishga qo'shimcha ta'sir qiladi. To'rtinchidan, o'quvchilarni amaliyotlar yaratishga va o'quv materialini amaliyotlar orqali o'rganishga rag'batlantirish yordamida ta'limning ko'proq interaktiv va amaliy

usulga o'tkazilishi taqdim etiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak , tarbiya fani maktab ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, yoshlarning ma'naviy kamoloti va hayotga tayyorlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu fan orqali o'quvchilarga axloq-odob qoidalari, milliy qadriyatlar va hayotiy ko'nikmalar singdiriladi. Shunday ekan, maktablarda tarbiya fanini zamonaviy talablarga mos ravishda o'qitish yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim omildir.Tarbiya fanini o'qitishda zamonaviy jihatlar, o'quvchilarni mustaqil, ijtimoiy ishlashga tayyorlash, tadbirkorlik va ijtimoiy muammoni yechishga qaratilgan yangi usullar bilan birgalikda rivojlantirishga imkon beradi. Zamonaviy o'qitish usullari, o'quvchilarni tahlil qilish, kreativ fikrlash, ijtimoiy ishlash va jamoaviy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ma'naviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Bu maqolada, zamonaviy o'qitish usullari tarbiya fanini o'qitishda qo'llanadigan yangi texnologiyalarni, interaktiv darsliklarni, onlayn ta'lim platformalarini va kompyuter o'yinlarini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Ergashev, Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari, Fan, -Т.: 2016. 210-bet
2. Эргашев И. Тараққиёт фалсафаси. Т.: Академия, 2000. 112 б.
3. Эркаев А. Миллий ғоя моҳияти Т.: Маънавият, 2001.-32 б.
4. Юсупов О. Умуммиллий ғоя. Т.: Жаҳон, 2000. – 29 б.
5. Юсупов Э., Туленов Ж., Фофуров З. Миллий масала бўйича фалсафий сухбатлар. Т.: Фан, 1990. – 142 б